

**MAXSUS FANLARDAN O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI  
RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN AMALIY MASHG'ULOTLARNI XORJIY  
TA'LIM FAOL METODLARIDAN FOYDALANIB O'TKAZISH METODIKASI**

**Maxfuza Ruzieva Xamidovna**

*Navoiy viloyat Nurota tumani 2-sonli kasb xunar maktabi  
maxsus fan o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Rivojlanayotgan sohalarni malakali kadrlar bilan ta'minlash muhim ijtimoiy muammo hisoblanadi. Ta'lif muassasalarida o'quv-tarbiya ishlarini takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.*

**Kalit so`zlar:** *o`quvchi, mashg`ulot, ta`lim, metod, pedagogika.*

**Annotation:** *Great work is being done in the socio-economic spheres in the country. Providing emerging spheres with qualified personnel is an important social problem. Improving educational work in educational institutions is an urgent pedagogical task.*

**Keywords:** *students, music, education, methods, pedagogy.*

Maxsus fanlarni o'qitish texnologiyasiga katta e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. O'quv jarayonini shunday tashkil etish kerakki, bunda hech qandau psixologik noqulaylik bo'lmasligi, talabalar o'z imkoniyatlariga to'la ishonishlari zarur. Ta'lif har bir talabaning imkoniyatini hiosobga olgan holda tashkil etiladi. Bajarilgan ish uchun ikki baho kamdan kam hollarda qo'yilishi va bunda ham o'quvchiga uni to'g'rilash, ya'ni yaxshi bahoga o'zgartirish imkonini berish lozim. O'quvchilar bilimi darsda musthakamlansa, ularga uyga vazifa berishga hojat qolmaydi, sinov imtihonlarini o'tkazish shart emas. O'quvchilar o'rganilayotgan o'quv materiallarini yaxshi qabul qilishlari va ularning toliqib qolsihlarining oldini olish maqsadida darsdan tashqari ishlarini teng yo'lga qo'yish lozim.

Talabalarning darsdan tashqari faoliyati o'z ichiga maslahatlar, qo'shimcha mashg'ulotlar, madaniy-ommaviy tadbirlar va ilmiy-ma'rifiy ishlar, predmetlararo aloqadorlikka asoslik ilmiy-amaliy konferensiylar :fanlar haftaligi, giyohvandlik va ekologiya muammosi booyicha o'quvchilarning ijodiy ishlari, kashandalik va ichkilikbozlikka qarshi tashviqot-targ'ibotlarni qamrab oladi.

Ta'lif muassasasida texnika taraqqiyoti bo'yicha ko'rik-tanlovlarini va ekologik jarayonlarni boshqarish mavzulari bo'yicha teatrlashtirilgan taqdinotlarini o'tkazish o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va ularda boshqaruv ko'nikmalarini shakllntirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirish orqali ularning ta'lif olish imkoniyatlari, mustaqil ishslash qobiliyatlarini hamda amaliy ko'nikmalarini o'zida shakllantirish va rivojlntrishga erishish mumkin.

Ana shunday xorijiy ta'lif texnologiyalardan biri bu morfologik matriksadir. Bunga faqat yuqori samarali fanda faol ta'lif texnologiyalari va metodlardan unumli foydalanish talab etiladi.

Morfologik matritsa bu o'qitishning faol texnologiyalaridan biri bo'lib, unda o'quv muammosi bir necha elementlariga ajratiladi, muammo elementlarini yechish uchun izlash amalga oshiriladi va mos tarzda imkon qadar yechim variantlarining ko'proq soni kiritiladi. Morfologik matritsa texnologiyasi qo'llashning didaktik maqsadi shunday iboratki, bunda muammoni to'laligicha tasavvur etish, shuningdek, tarkiblashtirish va tizimlashtirish yo'li bilan muammoni yechishga ko'maklashish hisoblanadi. Shu bilan birga, bu texnologik yondashuv muammoni ijodiy yechishni ham rag'batlantiradi. Muammo yechimlari orqali variantlar bo'yicha aniqlashtiriladi.

Morfologik metod asoschisi shveysariyalik fizik va astronom olim Frits Svikki hisoblanadi. "Morfologiya" so'zi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, "shakl va shakllantirish haqidagi ta'limot" ma'nosini bildiradi. Ma'lum metod bo'yicha hosil qilingan har bir tartib morfologiya deb aytildi, shuning uchun "tartiblashgan fikrlash ta'limoti" deb ham aytildi.

Morfologik metod kompleks yoki cheklangan, texnik yoki notexnik muammoni yechishning yangi kombinatsiyalarini yoki turli imkoniyatlarini toppish maqsadida qo'llaniladigan sistematik strukturaviy analiz hisoblanadi. Shuning uchun morfologik matrisa yangi mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlar uchun bo'shliqlarni toppish uchun qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, u analistik maqsadlar, shuningdek, innovatsion jarayonlarnivujudga keltirish uchun qo'llanilishi mumkin. Metod ham guruh ishida, ham yakka tartibda ishslashda qo'llanilishi mumkin.

**Amalga oshirish shartlari.** Agar morfologik matritsanı u rasmiy jihatdan qarasak, parametrlar va ifodalardan iborat bo'ladi. Bunda parametrlar (nima?) barcha yechimlarda uchraydigan o'zgaruvchilar hisoblanadi; bu parametrlar bir-biridan real mustaqil bo'lishi , barcha mumkin bo'lgan yechimlar uchun voaelikka to'g'ri kelishi va muammoni to'liq qamrab olishi kerak. Ko'rinishlar ( qanday?) parametrlar uchun ruxsat etilgan shakllantirish imkoniyatlari hisoblanadi. Bajariladigan funksiyaga mumkin bo'lgan , ruxsat etilgan yechimlar qarshi qo'yiladi.

**Amalga oshirish bosqichlari:** Morfologik matritsanı tuzish jarayoni ketma-ketligi quyidagicha ko'rinishda bo'lishi mumkin.

- Muammo
- Parameter (=nima")
- Ko'rinishi (=qanday?)
- Tanlov

Tavsiflanishi kerak bo'lgan muammo mavjud:

1. Muammo muhim, bir-biridan mustaqil bo'lhan ,muammo elementlariga ajratiladi.
2. Har bir velement uchun dastlabki muammoga qaramasdan barcha mumkin bo'lgan yechimlari (ko'rinishlari) yozib olinadi.
3. Asosiy muammo har bir elementi uchun bir-biridan mustaqil ravishda eng qulay ko'rinishi tanlanadi; har bir bo'lishi mumkin bo'lgan kombinatsiya har bir yacheykadan har bir ko'rinish bo'yicha asosiy muammoning yechimini beradi.
4. Asosiy muammoning optimal yechimi ajratilib ko'rsatiladi/tagiga chiziladi.

**O'tkazish qoidalari.** Parametrlarni aniqlash" avval ehtimolli parametrlarning oddiy ro'yxatini tuzing va quyidagi talablar bajarilishigacha uni qayta ishlanadi:

- **Mantiqiy mustaqillik:** parametrlar bir-birini shartlashi mumkin emas.

• **Umumiy voqelik:** parametrlar bir qismiga emas, balki barcha yechimlarga taalluqli bo'lishi kerak:

• **Muhimlik:** faqat asosli mulohazalarni qabul qilish

Parametrarning umumiy soni 7-10 ta bo'lishi kerak, o'zicha olingan ko'rinsihlar optimal yechimni bermaydi, ammo boshqa ko'rinishlar bilan birlashtirilganda optimal umumiy yechimga olib kelishi mumkin.

Kasb-hunar maktabi o'quvchilariga ayollar blyuskalari konstruksiyasini ishlab chiqish va tayyorlashni to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan amaliy mashg'ulotda xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, o'zgalar fikrini o'tkaza olish hamda o'z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu usul orqali o'quvchilar faollashadi va o'z fikrlarini namoyon qiladi. Mustaqil ravishda bergilash, kichik guruhlarda o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikr bo'la olish kabi ko'nikmalarni shakllantirish. Ushbu metod asosida tashkil etilgan mashg'ulotdan Loyihalash fani bo'yicha namuna keltirilgan.

**Mashg'ulot mavzusi:** Ayollar jaketlari konstruksiyasini ishlab chiqish va tayyorlash

**Mashg'ulot maqsadlari:**

**Ta'limiy:** O'quvchilarga ayollar jaketlarini tayyorlash va tiklash usullari gulli va gulsiz matolarni tanlangan holda ranglarni mujassamlashtirilishi haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** O'quvchilarni o'z- o'zini nazorat qilish , mehnatga mas'uliyat, ijodiy yondashishga , gazlamalarni isrof qilmaslik va tejashta , jihozlardan to'g'ri foydalanishni shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarni mustaqil holda bichish-tikish ishlarini to'g'ri va tez bajarishga hamda ijodiy qobiliyatlarini va o'z kasbiga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish

**Mashg'ulot shakli:** Kichik guruhlarda ishslash

**Mashg'ulot o'tkazish joyi:** O'quv ustaxonasi

**Jihozlar va uskunalar, materiallar:** bichish stoli, tikilgan jaketlar namunalari, gulli va gulsiz materiallar, yelimli qotirma, maxsus mashina, dazmol, ip, igna, qaychi, santimetr lenta

**Darsning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi:** Chizmachilik, materialshunoslik, maxsus rasm, tikuvchilik asoslari

**Tarqatma materiallar:** Testlar, slaydlar, yo'riqnomalar

**Mashg'ulotning borishi:**

## II.Tashkili qism.

Salomlashish, o'quvchilar davomatini aniqlash, ish o'rirlari va amaliyot ustaxonasining sanitariya-gigiyena holatini ko'zdan kechirish.

Mashg'ulotni o'tishdan oldin reja bilan tanishtiriladi.

**Reja:**

1. Ayollar jaketini tikish texnologiyasi.
  2. Ayollar jaketida texnologik jarayon ketma-ketligining bajarilishi
  3. Ayollar jaketi mayda bo'laklariga ishlov berish va tikish
- So'ngra o'quvchilarga faollashtiruvchi savollar beriladi.
1. Ayollar jaketini tikishda qanday matolardan foydalilanadi?
  2. Yeng tikish texnologiyasi qanday?

**3. Yoqani tikish texnologiyasi qanday? va hokazo...**

O'quvchilarni faollashtirib javoblar tinglanadi. Mustaqil fikrni eshitishni tashkil qiladi. Yo'l - yo'riq va tavsiyalar beradi. O'quvchilarning ishlashlari uchun zarur didaktik qo'llanmalar , yo'l- yo'riq ko'rsatma xaritalar, ilmiy adabiyotlar, bichish stoli, yozuv taxtasi, ta'limning texnik vositalari mavjud bo'lgan o'quv ustaxonasida o'tkaziladi.

**Yangi mavzu bayoni:**

Ayollar jaketlari turlari, assortimenti, klassifikatsiyasi, yeng turlari va tikishda uchraydigan mayda bo'lakchalar, ularga texnologik ishlov berish jarayoni tushuntiriladi. Bajariladigan ishlar ketma- ketligini bayon qiladi.

O'quvchilar ushbu mavzuni o'rganish jarayonida quyidagi amaliy ko'nikmalarni egallashlari kerak.

- Yoqani tayyorlab olish;
  - Yeng tayyorlash;
  - Jaketning taqilma va bezaklarini tikish
  - Jaketlar konstruksiyasini ishlab chiqish
- O'quvchilarning o'rganish davomida shakllanadigan nazariy va amaliy bilimlari:
- Ayollar jaketlari turlari, assortimenti, klassifikatsiyasi;
  - Yoqani tikish texnologiyasi;
  - Yeng tikish texnologiyasi;
  - Jaketni taqilma va bezakarini tikish;
  - Jaketlar konstruksiyasini ishlab chiqish.

O'qituvchi tomonidan mavzu doirasidagi asosiy ma'lumotlar beriladi so'ngra o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi. O'qituvchi o'quvchilarga mashg'ulotning umumiylarini va uni o'tkazish tartibini tushuntiradi . Mashg'ulotlarni morfologik matritsa texnologiyasida va ijodiy topshiriqlarni qo'llab amalga oshiriladi.

Ayollar jaketining yoqalari konstruktiv jihatdan yoqalarga ajratiladi. Gazlama turiga qarab ularga yelimli qotirma qo'yiladi. Ostki yoqanining teskari tomoniga qotirma materialini kleyli tomonini chetki qirqimlariga 0,5-0,7 sm .yetkazmay namlangan mato yordamida dazmollab yopishtiriladi. Ostki yoqahga kerakli shakl berish uchun qotirma tomonidan yoqa o'rtaidan boshlab qotirma va qaytarma qirqimlari bo'ylab oldin bir tomoniga keyin ikkinchi tomoniga ostki yoqa cho'zib dazmullanadi. Buning uchun ostki yoqa ko'tarmasi qirqimini ishlovchi tomoniga qaratib namlab ko'tarmaning va qaytarmaning qirqimlari tortibroq turiladi va yoqa uchlarini ishlovchidan chetga chiqarib turiladi. Ostki yoqani andazaga binoan aniqlab, bo'r bilan chiziladi va kerakmas joylari qirqib tekislanadi. Ostki yoqa shaklida mo'ljallab, har bir ustki yoqa alohida , teskari tomonidan aniqlanadi va qirqib tekislanadi. Ostki yoqa o'ngi tomonini yuqorida va uning ustiga ustki yoqa o'ngini pastga qaratib qo'yiladi va qirqimlarini ostki yoqa qirqimlari bilan tekislanadi. Uchchala tomoniga 0,7 sm .kenglikda ag'darma chok bilan tikiladi. Tikilgan yoqani burchaklaridan tikilgan chokka 0,1-0,2 sm yentkazmay kesib chiqamiz. Yoqani o'ngiga ag'darib, burchaklarini to'g'rilib, ustki yoqadan 1-2 mm kelnglikda kant chiqarib, ostki yoqa tomonidan yoqani ziyi ko'klanadi va dazmullanadi. Yoqani chetki qirqimlarini 0,5 sm kenglikda bezak va baxiyaqator yurgiziladi.

Yeng qirqimlarini o'ngini ichkariga qaratib qo'yiladi va teskari tomondan 1 sm chok haqi hisobidan tikiladi. Tikilgan choklar gazlamaning teskari tomonidan namlangan mato bilan dazmollanadi. Dazmol qilingan yeng qirqimlarini maxsus mashina yordamida yo'rmalanadi.

Etak qismini tikishda orqa va oldi bo'laklar etak qismlarini o'ngini ichkariga qaratib qo'yib, yon qirqimlari chetidan 1-1,5 sm tikiladi. Tikilgan yon qirqimlari orqa bo'lakka qaratib dazmollanadi. Tikib dazmol qilingan yon qirqimlari maxsus mashina yordamida yo'rmalanadi. Orqa va oldi yuqori qirqim chetlaridan 0,5 sm ichkarida birinchi bahiyaqator yuritiladi. Bahiyaqatordan 0,5 sm ichkaridan 2-chi bahiqator yuritiladi. Ikkala bahiqatorlarning ostki iplari toptiladi va burmalar tekislanadi.

Morfologik matritsa texnologiyasi yordamida ayollar jaketini tikish ketma-ketligini tuzish mayda bo'laklarni tayyorlash bo'yicha kichik guruuhlar ijodiy topshiriqlarni bajaradi.

### 1- guruh . Yoqaga ishlov berish

Belgi	Ko'rinish 1	Ko'rinish 2	Ko'rinish 3	Ko'rinish 4
<b>Ko'rinish shakli</b>	Qaytarma	Tik yoqa	Sholl	Adip qaytarmali qaytarma yoqa
<b>Material</b>	Bilur	Adras	Xonatlas	Krep
<b>Rangi</b>	Oq, qora	Yashil, oq	Kamalak rang	Qora
<b>O'lchami</b>	Santimetr	Qarich	Chizg'ich	Metr
<b>Birlashtirish</b>	Ikki ipli tikuv mashinasi	Yelimli	Bir ipli zanjirsimon mashinada	Qo'lda, qaviq qator
<b>Kiyishu chunqulayligi</b>	Ixchamligi uchun	Yopishib turganligi uchun	Shollviy ko'rinishi uchun	Chiroyli ko'rinishi uchun
<b>Qo'shimcha bezagi</b>	Tasma	Bezak beyka	To'rmato	Vishivka

### 2-guruh . Yengga ishlov berish

Belgi	Ko'rinish 1	Ko'rinish 2	Ko'rinish 3	Ko'rinish 4
<b>Ko'rinish shakli</b>	Reglan	O'tkazma	Yaxlit bichilgan	Ikki chokli yeng
<b>Material</b>	Viskoza	Adras	Xonatlas	Jensi
<b>Rangi</b>	Qizil, oq	Sariq,oq	Kamalak rang	Ko'k
<b>O'lchami</b>	Qarich	Chizg'ich	Santimetr	Metr
<b>Birlashtirish</b>	Ikki ipli tikuv mashinada	Yelimli	Bir ipli zanjirsimon mashinada	Qo'lda, qaviq qator
<b>Kiyishu chunqulayligi</b>	Ekspluatatsiya uchun qulay	Ixchamligi uchun	Milliylikni aks ettirish uchun	Ko'rinishi uchun
<b>Qo'shimcha</b>	Bezak toshlar	Applikatsiya va	To'rmato	Vishivka

bezagi		gajim		
--------	--	-------	--	--

### 3-guruh . Jaketga ishlov berish

Belgi	Ko'rinish 1	Ko'rinish 2	Ko'rinish 3	Ko'rinish 4
<b>Ko'rinish shakli</b>	Klassik	Avangard	Romantik	Kundalik
<b>Material</b>	Lavsan	Trikotaj	Shifon	Paxta
<b>Rangi</b>	Oq,qora	Yashil,kulrang	Oq	Ko'k
<b>O'lchami</b>	Qarich	Chizg'ich	Santimetrik	Metr
<b>Birlashtirish</b>	Ikki ipli tikuv	Yelimli	Bir ipli zanjirsimon mashinada	Qo'lda, qaviq qator
<b>Kiyishu chunqulayligi</b>	Kengligi uchun	Ixchamligi ko'rinishi uchun	Milliylikni aks ettirish uchun	Chiroyli ko'rinishi uchun
<b>Qo'shimcha bezagi</b>	Bezak toshlar	Aplikatsiya va gajim	Vishivka	To'rmato

O'quvchilar o'zlariga kerakli topshiriqlarni ongli guruhlarda bajaradilar:

**Guruh bilan ishlash qoidalari.**

**Guruh a'zolarining har biri**

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganda ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- "Biz bir kemamaiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

Blits -so'rov metodi orqali o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga , o'rganayotgan predmeti asosida xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda , o'zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini o'tkaza olish hamda o'z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu metod orqali o'quvchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikr bo'la olish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi.

**Kichik guruhlar ishini baholash**

1. O'qituvchi kuzatuvlari asosida , alohida guruh a'zolarining individual yutuqlarini ham, guruh bajargan umumiyligi ishni ham baholaydi. Bu ikkala bahoning o'rtacha qiymati natijani beradi. Bu usul o'qituvchining kuzatish qobiliyatiga juda yuqori talablar qo'ydi.

2. Guruhning alohida a'zolari boshqa barcha guruh a'zolarining individual yutuqlarini baholaydi. Barcha baholarning o'rtacha qiymati har bir kishi uchun alohida individual bahoni

beradi. Bu usul o'quvchilarda o'z-o'zini baholash kompenetsiyalarning rivojlanishiga ko'maklashadi va o'qituvchining baholashga muvozanatini ko'rsatadi.

3. Har bir guruh a'zosi guruhning umumiy natijasi uchun baho oladi. Bu usul adolatsizlik xavfini keltirib chiqaradi, chunki unda individual bajarilgan ish hisobga olinmaydi. Biroq, bu usul shuningdek, hamkorlikdagi ish uchun mas'iliyat hissiyotini ham kuchaytirish mumkin.

4. Guruh o'zini o'zi baholaydi va uni o'qituvchi o'zining bahosi bilan solishtiradi hamda natijani chiqarishda 50 % ga hisobga oladi. Bu usul o'quvchilarni baholash bilimdonligiga o'rgatish uchun qo'l keladi.

5. Guruhda ish yakunlangandan so'ng guruh ishi mazmuni yozma ravishda tekshiriladi va buning uchun har bir o'quvchi individual baho oladi.

6. Test topshiriqlari uchun alohida belgilardan olingan va guruhning umumiy natijasi bahosidan olingan o'rtacha qiymat yakunda har bir guruh a'zosi uchun alohida bahoni beradi.

Ikki usul ham aniq sharoitlarni yaratadi, biroq guruhdagi ish jarayonini e'tiborga olmaydi va guruhdagi hamkorlikka xalaqt qilish mumkin.

Agar ta'lif oluvchiga ushbu xususiyatlar shakkantirilmasa shaxs imkoniyatlari ro'yobga chiqmaydi shuning uchun ta'lif texnologiyalari va metodlari o'quvchining mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishiga qiziqish uyg'onish, mustaqil o'rganishga havas o'rttirishiga yo'naltirish lozim. Biz morfologik matritsa metoddan foydalanim, o'quvchilarning mustaqil o'rganishiga qaratilgan dars ishlanmasini keltirdik.

O'qituvchi ular tikkan har bir yoqa, yeng, manjetlarini tahlil qilib yakuniy sahbat o'tkazadi va kelgusida qaysi jihatlariga e'tibor berish kerakligini ayтиб o'tadi.

Ayollar jaketini tikish ketma-ketligini tuzish, mayda bo'laklarni tayyorlash bo'yicha ijodiy topshiriqlarni bajaradi.

Texnika va mehnat xavfsizligi hamda sanitariya gigiyena qoidalariga yoqa, yeng, manjetni tayyorlash tartibi va ish jarayonida yo'l qo'yiladigan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo'llari haqida ma'lumot beradi. Guruhlarning har biriga ijodiy topshiriqlar beriladi. Guruhlardagi har bir o'quvchiga kichik ijodiy topshiriqlar beriladi. Yoqa, yeng, jaketni tikish uchun o'quvchilarning har bir guruhlarga mato va texnologik xaritalar beriladi. Guruh yetakchisi ishlarni taqsimlaydi. Bichish-tikish ishlarini bajarish uchun vaqt belgilaydi. O'qituvchi o'quvchilar ishini kuzatib turadi. Ishni sifatli bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Har bir guruh o'quvchilari tayyor bo'lgan yoqalarni, yenglarni, manjetlarni, jaketni belgilangan vaqt davomida tayyorlashlari kerak. O'qituvchi tayyor yoqa, yeng, manjet, tayyor jaketlarni tekshirib ularni ma'lum mezon asosida baholaydilar. Topshiriqlar bajarishda ijodiy yondashuv ham alohida baholanishi kerak. Ishni tayyorlayotganda o'quvchi ijodiy ish mahsuli sifatida biron mahsulot yoki kompozitsiya yaratadi. O'quvchilar bajargan ishni baholash orqali ularning mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini haqida ham ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. O'quvchilar ishini quyidagi tarzda baholash ham mumkin: o'quvchi ishini bajara olmadidi, qoniqarsiz ( 55 % dan past), qoniqarli ( 56-71%), yaxshi ( 72-85%), a'lo (86-100%) darajada bajaradi.

**Yakuniy qism.**

Guruh o'quvchilari to'plagan ballar e'lom qilinib, g'olib guruh rag'batlantiriladi. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganligini anglatuvchi ko'rsatgich bo'lib, u sonlar ("5", "4", "3", "2") bilan ifodalanadi. Bajarilgan ishlarning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinadi, yo'l qo'yilgan kamchiliklari tahlil qilinadi, yo'l qo'yilgan xatoliklar sabablari aniqlanadi hamda bartaraf etish yo'llari tushuntiriladi. Uyga bajarish uchun topshiriq beriladi. Laboratoriya xonasidagi narsalar yig'ishtirilib, tartibga keltiriladi.

Darsni ushbu metod asosida tashkil etilishi fan bo'yicha ta'lim oluvchilarning mustaqil o'rganish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, topshiriqni mustaqil rejalashtirish, amalga oshirish va baholash kabi ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. O'quv materiali esa chuqur va mukammal tarzda asosli egallanadi.

Mana shu morfologik matritsa usuli qo'llanilganda o'quvchilarning bilim olish faoliyati faollahshadi, o'z fikrini mustaqil bayon eta oladi, amaliy ko'nikmalari rivojlanadi.

"Loyihalash" o'quv kursidan tashkil etiladigan mashg'ulotlarda har bir o'quvchining oldiga boshqaruvgaga oid savol (topshiriq) yozilgan xatjild qo'yiladi. O'quvchilar xatjilda ko'rsatilgan savolga mustaqil javob izlaydi. Bundan tashqari, o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda yechishlari uchun quyidagi mazmundagi muammoli topshiriq berilishi mumkin. **"Siz zamonaviy kiyimlarning turlarini takomillashtirish bo'yicha nimalarni taklif qilgan bo'lar edingiz?"**

**Tasavvur qilib ko'ringchi!** Siz ayollar ustki kiyimlarini yaratganingizda unga yana qanday qo'shimcha yangiliklar taklif etgan bo'lardingiz? **Siz taklif etayotgan** yangilik qanday ta'sir qilgan bo'lar edi? Bo'lsa ifodalab bering.

Bunday topshiriqlar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Uni yechishda guruh a'zolari o'zaro maslahatlashadi va fikr almashadi. Natijada ularda nafaqat amaliy o'quv ko'nikmalari, balki kommunikativ ko'nikmalar, bag'ri kenglik va hamkorlik fazilatlari ham rivojlanadi. Ayniqsa, mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar bilan birgalikda tuzilgan krossvordlar, rebuslar, boshqotirmalardan keng foydalanishi ularning bilimlarini yanada mustahkamlashga, xotirasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy, psixologik xarakterdagi masalalarni hal etishda "Loyihalash" o'quv kursiga oid eng soda atamalar, shumigdek ancha murakkab tushunchalardan foydalanib, tuzilgan krossvord, rebus va boshqotirmalar eng maqbul hisoblanadi. Boshqotirmalarni tuzishda o'quvchilarning imkoniyatini hisobga olish kerak. Bu ta'limni tabaqa lashtirish va individuallashtirishga yordam beradi.

Bilimlarni baholashning o'ziga xos tizimi, darslarni tashkil etishning nostandard shakllari, fanlararo aloqadorlikdan keng foydalanish, ta'limnng kasbiy yo'nalganligini ta'minlash o'quv materialini ko'rgazmali misollar bilan boyitish o'quv faoliyatini yanada faollashtiradi, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishi va o'zini-o'zi nazorat qilishiga rag'bat uyg'otadi.

Sinov darslarida o'zaro nazorat metodidan keng foydalanish mumkin. Bunda mavzuni juda yaxshi o'rgangan o'quvchi boshqalarning bilimini baholaydi, o'qituvchi esa uning baholashi qanchalik xolis ekanini tekshirib ko'radi. Bu esa, shaksiz har bir o'quvchiga o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan hurmat hisoblanadi. Hozirgi vaqtida o'qituvchi va o'quvchining samimiy o'zaro hamkorligisiz zamonaviy darslarni samarali tashkil etib bo'lmaydi.

Ta'lrim jarayonida o'quvchilarning individual qobiliyati va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Maxmudova, O. (2022). ONA TILINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'RGANISH. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 4), 97-104.
2. Usmonova, D. (2022). TO STUDY THE IMPORTANCE OF TRANSPOSITION OF WORD CATEGORIES IN ENGLISH. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(10), 128-131.
3. Shodieva, G. (2022). TO STUDY THE IMPORTANCE OF TRANSPOSITION OF WORD CATEGORIES IN ENGLISH. *Science and innovation*, 1(B5), 506-509.
4. Toxirjonovna, O. M. (2021, October). SOZ TURKUMLARINI TASNIFFLASHDA INTERFAOL METODLARDAN UNUMLI FOYDALANISH JARAYONIDA KOMPETENSIYAVIY USULLARNING QOLLANISHI. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 219-224).
5. Khakimov, M. K. (2021). VISUAL POETIC TEXTS AS MULTISEMIOTIC SYSTEM. *Theoretical & Applied Science*, (8), 185-188.
6. Юнусова, X. (2022). Verbo-visual figures in poetic texts. *Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta'lim texnologiyalari*, 1(1), 73-76.
7. Yunusova, H. R. Q. (2021). VIZUAL POETIK MATNLARDA GRAFIK BIRLIKLER TAHLILI (HOZIRGI O'ZBEK SHE'RIYATI ASOSIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(7), 26-30.
8. Khakimov, M. K. (2021). VISUAL POETIC TEXTS AS MULTISEMIOTIC SYSTEM. *Theoretical & Applied Science*, (8), 185-188.
9. Авазовна, Г. В. (2022). THE SOCIOLINGUISTIC NATURE OF THE ADDRESS. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(7), 81-86.
10. Авазовна, Г. В. (2021). Классификация сказок о животных по их структурно-семантическому признаку. *Преподавание языка и литературы*, 1(8), 74-77.
11. kizi Giyosova, V. A., & Sabirov, N. K. FAIRY TALES OF THE RUSSIAN AND UZBEK PEOPLES (COMPARATIVE APPROACH).
12. Рахманова, Д. (2012). Тавалло-представитель эпохи джадидизма. *in Library*, 12(3), 546-549.
13. Mirzakarimovna, Rakhmonova Dildora. "ISSUES OF RENEWAL OF POETIC FORM AND CREATIVE STYLE IN THE WORK OF JADIDIST TAVALLO." *E Conference Zone*. 2022.
14. Raxmonova, D. (2022, September). RULES OF DISPUTES IN THE FIELD OF JURISPRUDENCE. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 1, pp. 50-54).
15. kizi Giyosova, V. A., & Sabirov, N. K. FAIRY TALES OF THE RUSSIAN AND UZBEK PEOPLES (COMPARATIVE APPROACH).

16. Авазовна, Г. В. (2021). Классификация сказок о животных по их структурно-семантическому признаку. *Преподавание языка и литературы*, 1(8), 74-77.
17. Авазовна, Г. В. (2022). THE SOCIOLINGUISTIC NATURE OF THE ADDRESS. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(7), 81-86.
18. GIYOSOVA, V. (2019). Functioning of fairy-tale as one of the variety of folklore text in oral folk art. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 124-126.
19. Sabirovna, S. G., & Ibragimovich, T. A. (2022). Organization of Physical Culture and Recreation Work with Preschool Children.
20. Туйчиев, А. И. (2022). ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ДИСЦИПЛИНАРНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ИГРОВЫХ СРЕДСТВ: уйчиев Ашурали Ибрагимович, Преподаватель Ферганского государственного университета. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (2), 160-162.
21. Tuychiyev, A. I. (2022). O 'QUVCHILARDA INTIZOMIY KO 'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 3(2), 896-901.
22. Aliyeva, N. (2021). MODERN CONCEPTS OF STUDYING PHRASEOLOGISMS IN THE FRAMEWORK OF FRAME REPRESENTATION AND THEORY OF CONCEPTUAL METAPHOR. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, 2(12), 206-211.
23. Aliyeva, N. (2021). Modern concepts of the study of phraseological units within the framework of frame representation and the theory of conceptual metaphor. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 147-156.
24. Aliyeva, N. (2021). СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕМ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 3(8).
25. Aliyeva, N. (2021). ИЗОМОРФИЗМ АНГЛИЙСКИХ КОЛЛОКАЦИЙ И ФРАЗЕМ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ С УЧЕТОМ ПЕРЕХОДНОСТИ ЗНАЧЕНИЯ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(2).
26. Yakubova, D. (2022). TEACHING GRAMMAR FOR EFL STUDENTS AND ITS APPROACHES. *Involta Scientific Journal*, 1(7), 265-268.
27. Dilnozakhon, Y. (2022). TEACHING PRAGMATICS BY EXPRESSING AND GIVING COMPLIMENTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 575-578.
28. Abdumalik o'g'li, O. R. (2021). THE BRIEF INVESTIGATION OF CONTEMPORARY SPEECH STYLES OF THE ENGLISH LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1280-1283.